
TUMAN HOKIMI YANGI O'QUV YILIGA TAYYORGARLIK HOLATINI O'RGANDI



Qo'shtepa tumani hokimi A.Abdullayev "Qo'rg'oncha" mahallasi hududida joylashgan 28-umumiy o'rta ta'lim maktabida bo'lib, 2024-2025 o'quv yiliga tayyorgarlik jarayonlari bilan tanishdi.

Shuningdek, "Tashabbusli byudjet" loyihasi asosida muassasaning sinf va ma'muriy xonalarida olib borilayotgan ta'mirlash ishlarining bajarilishini ko'zdan kechirdi.



Ta'mirlash ishlarini o'quv yili boshlanguniga qadar yakunlash bo'yicha mas'ullarga topshiriqlar berildi.

Tuman rahbari ushbu maktab binosida joylashgan saylov uchastkasida ham bo'lib, ushbu yerda olib borilayotgan ta'mirlash ishlarini qisqa muddatlarda yakunlash bo'yicha topshiriqlar berdi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-08-01 23:26:55